

TILLA BALIQCHALAR (Chexiya xalq ertagi)

Kunlarning birida o‘ymakor usta bilan zargar kimning hunari yaxshi deb bahslashib qolibdi. Ular uzoq bahslashibdi, tortishibdi. Bir vaqt oldilaridan qirol o‘tib qolibdi. Qirol, bu muammoni siz hal qilib bering, deb yalina boshlashibdi. Qirol, ikkalangizning ham hunaringiz yaxshi debdi-yu, lekin ularning san‘atini aniqlash maqsadida ikkoviga ham bittadan narsa yasashni aytib, muddatini ham tayinlabdi. Kimning hunari yaxshiligini o‘shanda ko‘ramiz, debdi qirol. Zargar bir hafta muddat so‘rabdi, o‘ymakor usta bo‘lsa ikki hafta muhlat so‘rab, shu bilan tarqalishibdi.

Bir hafta o‘tib, zargar qirolga tilla baliqchalar keltiribdi. Ularni suvga qo‘yishi bilan suzib ketaverar ekan. Zargarining san‘ati qirolga juda yoqibdi va qani ko‘raylik-chi, o‘ymakor usta nima olib kelarkin, deb uni kuta boshlabdi.

Qirol saroydagi ochiq deraza oldida ko‘chani tomosha qilib o‘tirgan ekan. Bir vaqt kuchli shatirlagan ovoz eshitilibdi-yu, qirol burilib qaraguncha bo‘lmay xonaga yog‘och qanotlarda o‘ymakor usta uchib kiribdi. U shunday bir qanot yasagan ekanki, har qanday odam uni o‘ziga taqib, qushga o‘xshab uchib ketaverarkan.

Qirol qoyil qolibdi, zargarni ham chaqirtiribdi-da, ikkalasining ham san‘atiga tasannolar aytibdi, biroq ulardan qaysi birining mahorati zo‘rligini aytoilmabdi. Bundan keyin o‘lim oldidan ham bir qatla bahslashishlarini tayinlabdi-da, ularga katta-katta mukofotlar berib, qo‘yib yuboribdi. Tilla baliqchalar uchun esa, qirol oqar daryodan bir qo‘ltiq yasashni amr etibdi, undagi suv doim yangi bo‘lib turishi uchun ataylab shunday qildiribdi.

Qirolning bir erkatoiy o‘g‘ilchasi bo‘lib, ko‘pincha u tilla baliqchalarni o‘ynar ekan. Bir mahal urush boshlanib qolibdi-yu, qirol o‘g‘ilchasini uyda qoldirib, jang qilgani jo‘nab ketibdi. O‘g‘ilcha tilla baliqchalar bilan andarmon bo‘lib yurarkan, o‘zicha: «Hadeb qo‘ltiqda suzishaveradimi, ko‘raychi, ular daryoda qanday suzisharkin», deb o‘ylab tilla baliqchalarni daryoga qo‘yib yuboribdi. Baliqchalar u yoqqa qarab suzishibdi, bu yoqqa qarab suzishibdi, oxiri bolakaydan uzoqqa ketib qolishibdi.

Yosh shahzoda qo‘rqib ketibdi-da, qirg‘oq bo‘ylab baliqchalarning ortidan quvalashga tushibdi, lekin yetolmabdi. Jangdan qaytib kelgan otasiga nima deydi endi? Shunda qirolning yashirib qo‘ygan qanotlari borligi shahzodaning esiga tushibdi. Bolakay qanotlarni topib, baliqchalar ortidan uchishga jazm etibdi. Yugurib saroyga boribdi, qanotlarni topibdi va o‘ziga bog‘labdi-yu, havoga ko‘tarilibdi.

Shahzoda uchib ketaveribdi, uchib ketaveribdi, bir vaqt qorni ochqab, ovqatlangisi kelibdi. Qarasa, pastda bir cho‘pon cho‘chqalarni boqib yurgan emish. Shahzoda yerga qo‘nib, qanotlarni yechibdi-da, bir pana joyga bekitib, cho‘chqaboqarning oldiga boribdi. Meni o‘zingizga yordamchi qilib oling, cho‘chqalaringizni boqaman, evaziga bir kosa ovqat berib tursangiz bo‘ldi, deb iltimos qilibdi. Cho‘chqaboqar bir keksaroq odam ekan, shahzoda unga yoqib qolibdi va uni o‘ziga yordamchi qilib olibdi. Shunday qilib yosh shahzoda cho‘chqa bolalarini boqib yuraveribdi.

Cho‘chqa bolalarini shunchaki boqib yuravermabdi, o‘ziga ermak ham topib olibdi — nay yasab, nayda kuylar chalib, kuylariga cho‘chqa bolalarni o‘yinga tushishni o‘rgatibdi.

Kunlarning birida u cho‘chqa bolalarni qirol saroyi yaqinida boqib yurganida unga malikaning ko‘zi tushibdi, cho‘pon bolaning nay chalishi-yu cho‘chqachalarning raqs tushishiga mahliyo bo‘lib qolibdi. Ayniqsa malika yosh cho‘chqaboqar yigitdan sira ko‘zini uzolmasmish — ko‘ngliga shundoq o‘tiribdi-qolibdi. Bo‘lmasam-chi, shahzoda oy desa yuzi, kun desa ko‘zi bor jonon yigitlardan ekan-da! Shahzoda ham darchadan sohibjamol malikaning qarab turganini sezibdi va u ham qizni yaxshi ko‘rib qolibdi. Cho‘chqachalarini tez-tez saroy derazasi tagiga haydab keladigan bo‘libdi. Lekin koshki bundan tariqcha foyda bo‘lsa, malika xobgohiga allaqanday cho‘chqaboqarni kim ham qo‘yar edi?

Shunda shahzoda-cho‘chqaboqar haligi qanotlarni eslabdi-yu, o‘zida yo‘q suyunibdi. Kech tushishi bilan qanotlarini taqib, malikaning ochiq derazasidan uchib kirarkan-da, tong qorong‘isida hech kimga bildirmay uchib ketar ekan. Bu hol uzoq davom etibdi, ammo hech kim bilmabdi.

Lekin hamma narsaning ham oxiri bo‘ladi, kunlarning birida bu sir oshkor bo‘libdi. Malika kechqurunlari ikki kishilik ovqat olib kelishlarini aytar ekan. Bu gap qirolning qulog‘iga borib yetibdi va u bir gap bo‘lsa kerak, deb shubha qilibdi. Malikaning oldiga kim kelishini bilish uchun odam qo‘yibdi. Poyloqchi eshik tagida poylagani uchun eshikdan biron tirik zot kirganini ko‘rmabdi. Shunda qirol o‘ylanib qolibdi — nahotki kelgindi derazadan kirsam?! U g‘isht teruvchilarni chaqiribdi-da, malika derazasi tagiga qopqon qo‘yishni buyuribdi. Malika nega bunday qilayapsizlar deb so‘rasa, yiqilib tushmasin deb minoraga sinchlar qadayapmiz, deysizlar, debdi.

Qirol aytganidan ham a‘lo qilib ustalar deraza tagidan boplab qopqon o‘rnatishibdi.

Bir vaqt cho‘chqaboqar odatdagiday qanotlarini qoqqancha uchib kelibdi-da, derazadan kirmoqchi bo‘libdi, biroq qopqon sharaqlab yopilib, sho‘rlik yigitcha qisilib qolibdi, na u yoq-bu yoqqa jila- olarmish, na qimirlayolarmish.

Malika achchiq-achchiq yig‘labdi, qopqonni ochishga harchand urinsa ham sira kuchi yetmabdi. Yigitcha esa unga taskin-tasalli berib, yupatibdi, shu bilan tun o‘tib, tong otibdi.

Ertalab qirol qopqonga kim ilinganini bilgani kelibdi, qarasa cho‘chqaboqar emish! Qirolning shunaqangi jahli chiqibdiki, qo‘yaverasiz. Darhol ikkala gunohkorni ham zindonga tashlanglar, so‘ngra osib o‘ldiringlar, deb amr qilibdi.

Qatl kuni ham kelibdi. Har tomondan ritsarlar, aslzoda panlar, oddiy odamlar saroy oldiga to‘plana boshlashibdi. Shahzoda bilan malikani supa ustiga olib chiqishibdi. Shunda cho‘chqaboqar qirol dan, o‘limi oldidan bir chetga chiqib malika bilan vidolashib olishga izn berishini iltimos qilibdi. Qirol xo‘p debdi. Shahzoda-cho‘chqaboqar malikani bir chetga olib boribdi-da, doim ko‘zdan yashirib qo‘yadigan qanotlarini olib taqibdi, malikani esa qo‘liga ko‘taribdi-da, ikkalasi baravar osmonga parvoz qilibdi. Pastda esa xaloyiq shodon qiyqirib:

— Qirolimizning qizini dev olib ketdi! Qirolimizning qizini dev olib ketdi! — deb qichqira boshlabdi. Bu gapga hamma ishonibdi, hamma ishonganidan keyin qizini dev olib ketganiga qirol ham ishonibdi.

Shahzoda esa malikani olib, o‘zining qirol otasi oldiga qaytib kelibdi. Keksa ota o‘zida yo‘q xursand bo‘libdi, chunki u o‘g‘lini allaqachon o‘ldiga chiqarib qo‘ygan ekan-da. Katta to‘y-tomosha bo‘libdi, hamma yeganicha yebdi, ichganicha ichibdi, xullas bir haftagacha to‘y gumbur-gumburi tinmabdi. To‘ydan keyin qirol saltanatini o‘g‘liga topshiribdi-da, hammalari dorilamon umrguzaronlik qilishibdi.

Oradan ancha vaqt o‘tgandan keyin yosh qirol xotinini olib, uning otasinikiga izn so‘ragani boribdi. Qirol bo‘lsa na o‘z qizini, na cho‘ponni tanibdi.

Shahzoda o‘smoqchilab qirol dan nimaga farzandi yo‘qligini so‘ray boshlabdi. Qirol qizi bo‘lganligini, qizini allaqanday dev olib qochganini, lekin bu gapga hali-hali ishonmayotganini aytibdi. Shahzoda, shuncha yil ayriliqdan keyin qizingizni ko‘rsangiz tanirmidingiz, debdi. Shunda malika chidayolmay o‘zini otasining oyog‘iga tashlabdi va ikkala qayliq bir qoshiq qonimizdan keching, biz gunohkormiz, deb yolvora boshlashibdi. Qirol sevinganidan aqlini yo‘qotib qo‘yayozibdi, o‘sha zahoti gunohlaridan o‘tib, butun saltanatini kuyovi bilan qiziga topshiribdi. Omad bir kulib boqsa shunaqa bo‘larkan-da, birato‘la ikki saltanat ularniki bo‘lib turibdi!

“Oltin shahzoda” kitobidan